

baha bere alatuǵın ekologiyalıq mádeniyatlı insanlardı tárbıyalap shıǵarıwdan ibarat. Mektep geografıyasın oqıtıw menen onıń tárbıyalıq jumısların ekologiyalıq baǵdarda paydalanıp utımlı shólkemlestirsek oqırshılarda tómendegi ekologiyalıq hám tárbıyalıq wazıypaların qalıplestiriwge imkaniyat jaratadı.

- Tábiyat hám jámiyet arasındadıǵı baylanıs hám onıń adamlar iskerligine, turmısına tásirin anlaw;

- Qorshaǵan ortalıqtaǵı suw, hawa, topıraq resurslarınń pataslanıw dereklerin analizlep olardıń aldın alıw ilajların biliw;

- Ilimiy geografıyalıq oylaw, pikirlew arqalı geografıyalıq bilim hám ekologiyalıq kónikpelerdi payda etiw;

- Tuwılǵan ana watanına, óz úlkesi tábiyatına bolǵan mehir-aqibet hám súyispenshilikti oyatıw;

- Elimizdiń tábiyiy baylıqlarına únemli qatnas jasaw arqalı olardı asırıp saqlaw hám aqılǵa muwapıq paydalanıwdıń jolların biliw;

- Úlkemizde ekologiyalıq krizislerge baylanıslı joq bolıp baratırǵan ósimlik hám haywanat dúnyasın asırıp qalıwdıń itimallı ilajların izlew;

- Oqırshılardıń geografıyalıq dúnyaǵa kózqarasın keńeytiw arqalı ekologiyalıq mádeniyatlılıǵın qalıplestiriw.

Jaslardıń ekologiyalıq mádeniyatlılıǵın qalıplestiriwshi bunday juwapkerli wazıypalardı keń jámiyetshilik penen birge tabıslı sheshsek ǵana biziń kelesheǵımızdi belgileytuǵın geografıyalıq sawatlı, ekologiyalıq mádeniyatlı keleshek áwladlardı tárbıyalap shıǵarıw menen Respublikamızda júz berip atırǵan ekologiyalıq daǵdarıstı turaqlastırıwǵa ılayıqlı úles qosqan bolamız.

Ádebiyatlar

1. Mirziyoyev Sh.M. 2017-jıl 19-sentyabrde BMSHnıń 72-sessiyası májilisindegi sózge shıǵıwı.

2. Кошелева В.Л. Экология и нравственность. // «Общественные науки и современность». 1993. №1.

3. Четвертая конференция министров Окружающая среда для Европы". Государства Центральной Азии: Оценка окружающей среды. –Дания: Орхус, июнь, 1998.

4. Кучер Т.В. Экологическое образование учащихся в обучении географии. -М.: «Просвещение», 1990.

REZYUME. Ushu maqolada Orol dengizi bilan bog'liq Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik inqirozning murakkablashuvi bu hududlardagi tabiiy atrof muhitning o'zgarishiga asosan, xalq xo'jaligining barcha sohalariga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ishda Qoraqalpog'iston sharoitida maktab o'quvchilariga ekologik ta'lim va tarbiya ko'nikmalarini shakllantirishda geografiya fanining ahamiyati ko'rsatilgan.

РЕЗЮМЕ. В связи с высыханием Аральского моря экологическая катастрофа на территории Республики Каракалпакстан усугубилась и привела к негативным изменениям в окружающей среде, а также существенно повлияла на все отрасли экономики. В данной статье рассматривается роль географии в формировании экологического образования и навыков у школьников Каракалпакстана.

SUMMARY. Due to the drying up of the Aral Sea, the ecological disaster on the territory of the Republic of Karakalpakstan has aggravated and led to negative changes in the environment, and significantly affected all sectors of the economy. This article considers the role of geography in the formation of environmental education and skills in schoolchildren of Karakalpakstan.

KOMILLIKGA INTILAYOTGAN YOSH AVLODDA IJTIMOYIY EZGU SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

T.A.Pazilov – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: odamzod, og'zaki adabiyot, ijod, urf-odat, folkloristik asar, madaniy yodgorlik, etnopedagogika, tarbiya, milliylik.

Ключевые слова: человечество, устное народное творчество, творчество, традиции, фольклорные произведения, памятники культуры, этнопедагогика, воспитание, национальность.

Key words: humanity, folklore, creation, traditions, folklore compositions, cultural monument, ethnopedagogy, education, nationality.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy turmush sharoitlari, har bir insonning mustaqil rivojlanishiga bo'lgan talablarning amalga oshirilishi, bironing mehnatidan sitamgarlik bilan foydalanishning yo'qligi, o'quv va mehnat ishlash uchun hammaga teng imkoniyatlarning berilishi, mehnatiga qarab haq to'lash imkoniyatlari – III Renessans davriga mos o'sib, har tomonlama rivojlanib borayotgan yosh avlodga ijtimoiy ezgu sifatlarni shakllantirishga keng imkoniyatlar yaratib berdi.

Tarbiya – maqsadga muvofiq keladigan ijobiy tendensiyalarni va jamiyatdagi tarbiyaviy imkoniyatlarni har tomonlama rivojlantiradi va takomillashtiradi. Chunki, “tarbiya – har bir shaxsda muayyan bir jismoniy, ma'naviy, axloqiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan aqliy-jismoniy, badiiy-estetik va axloqiy-ma'naviy xususiyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan choralar kompleksi” [3:248]. Aniqroq qilib aytganda, tarbiya “...shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon” [4:25]. Xususan, taraqqiy etayotgan Mustaqil O'zbekiston sharoitida tarbiya bugungi kunda jamiyatimiz tomonidan qo'yilayotgan talablarni qanoatlantirish bilan birga, bo'lg'usi hayotga intilib yashaydigan, III Renessans davrida yashovchi yangi avlodni shakllantirishni maqsad qiladi. Shuning uchun ham o'zining intiluvchanligi, ertangi kunga yo'naltirilganligi bilan yurtimizda olib boriladigan tarbiyani “komil inson tarbiyasi” deb ataydi.

Pedagogik ensiklopediyada ko'rsatilishicha “O'zbekistonda komil insonni tarbiyalash uchun ijtimoiy,

siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, tashkiliy vazifalar davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishi etib belgilangan. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, komil insonni voyaga yetkazish milliy istiqlol mafkurasining asosiy vazifalaridan qilib qo'yildi” [5:183]. Ushbu vazifalarning hayotga tatbiq etilishida tadqiqotchilar komil insonning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va uning tarbiyasi, komil inson tarbiyasida individning o'ziga xos kuchlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi, komil inson tarbiyasining pedagogik asoslarini, komil inson tarbiyasida faol turmush tarzini va uning dunyoqarashlarini shakllantirish masalalari har tomonlama tadqiq qilindi.

Insonning jamiyatda shaxs sifatida shakllanishiga, ijtimoiy va axloqiylikka bog'liq bo'lgan va komil inson tomonidan nazarda tutilgan fikrlar – jamiyatimizning kelajagi uchun yashashga va harakat qilishga, o'zining shaxsiy, nihoyatda ahamiyatli sanalgan turmushi uchun kurashishga qobiliyatining bor ekanligidan darak beradi.

Hozirgi zamon pedagogikasida komil insonni takomillashtirish muammosi uch aspektida o'rganiladi:

– har tomonlama rivojlanish yoki yetuklik;

– bir maqsadga yo'naltirilganlik;

– garmonik.

Har tomonlama rivojlanish yoki yetuklik odamning muvaffaqiyatli mehnat qilishini, ijtimoiy munosabatlarini, ma'naviy dunyosini, barcha ijtimoiy sharoitlarni o'zida mujassam etadi. Bir maqsad sari yo'naltirilganlik – shaxsning o'z sa'y-harakatlarini doimiy turdagi turmush maqsadlariga bo'ysuntirishi, maqsad yo'lida tayyor turishini takomillashtirib borishi nazarda tutiladi. Garmonikda esa odamning ichki dunyosi mazmunining, shaxsning mustaqil rivojlanishiga proporsional tarzda

imkoniyat beradigan shakllarida o'z ifodasini topadi.

Komil inson tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish vazifalari S.Abaev [6], M.A.Yakubov [7], Sh.Bahavatinov [8], M.Jakbarov [9], N.Kamilov [10], S.Nishonova [11], G.Tillaeva [12], A.A.Umarov [13], Aziziddin Nasafiy [14] va boshqalarning o'z ilmiy tadqiqotlarida ko'rsatilgani kabi, faqat ushbu muammoga bir butun yondashish orqali amalga oshirish imkoniyatiga ega ekanliklaridan darak beradi.

Vatanparvarlik tarbiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini komil inson qilib yetishtirish ishlarida yetakchi o'rinlarning birini egallaydi. Chunki, vatanparvarlik tarbiyasi – bu boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'z eliga, Vatanga mehr-muhabbatli, sodiq farzandlar qilib tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Vatanparvarlik hamma insonlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida rivojlanib kelgan umumiy insoniylik hissi, ma'naviy qadriyatlarining biri. Muqaddas dinimizda va hadisi sharifda vatan tuygusi, vatanni sevish iymondan ekanligi ta'kidlanadi [15]. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning aytganlaridek, "Bolalarimizni Vatanparvar, jamiyatga kerakli inson qilib tarbiyalamasak, kelajakka hiyonat qilgan bo'lamiz" [1].

Bugungi kunda yoshlarni boshlang'ich sinflarda o'quv yillaridan boshlab vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini takomillashtirish davlat ahamiyatidagi ish bo'lib, pedagogika va psixologiya ilmda tadqiq qilinayotgan muammolar qatoridan joy oldi. So'nggi yillarda bu soha bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi va hanuzgacha bunday ibratomuz ishlar davom ettirilmoqda. Xususan, bu sohada Ona – Vatan, uning gullab yashnashi, Vatanni jonu-dili bilan himoya qilish, Vatan uchun jonini ham ayamasklik ishlariga yo'naltirilgan ulug' allomalarimizning, ota-bobolarimizning in'om etib qoldirgan bebaho meroslari, folklor materiallari har tomonlama tadqiq qilinishi davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-son qarorida ham Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari quyidagi to'rt bosqichda amalga oshirilishi belgilandi. Ushbu bosqichlarning birinchi va ikkinchisida 3 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlariga alohida e'tibor qaratiladi. Unga ko'ra: birinchi bosqich (3-7 yoshdagilar)da oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarga har xil ma'nodagi she'rlar, kuy va qo'shiqlarni o'rgatish, multfilm va turlicha harakatli o'yinlarni namoyish etish, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishtirish asosida ularda Vatanimizga, ona-yurtimizga bo'lgan muhabbatni shakllantirish ishlarini o'z ichiga oladi.

Qarorda ko'rsatilishicha ushbu bosqichda asosiy e'tibor:

- harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi dastlabki tasavvurlarni bolalar ongida shakllantirish uchun ertak va hikoyalar aytib berish;

- ona-vatanimizga muhabbat, Vatan himoyasining eng muqaddas burchlardan biri ekanligi haqidagi mavzularda she'r va qo'shiqlarni yod oldirish;

- bolalarning Vatan haqidagi tasavvurlarini kengaytirish maqsadida rasmlar chizdirish va jismoniy qobiliyatlarini mustahkamlash bilan bog'liq har xil musobaqalar va tanlovlarni tashkil etish, Shu orqali ularni ma'naviy jihatdan rag'batlantirib borish;

- harbiy-vatanparvarlik mavzusiga oid multfilmlarni namoyish etish va har xil o'yinlarni o'tkazib turish;

- harbiy-vatanparvarlik mavzusi bilan bog'liq bo'lgan madaniyat va istirohat bog'lariga ekskursiyalar uyushtirish ishlariga qaratiladi.

Ikkinchi bosqich (7-16 yoshdagilar) asosan o'quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, ularning ona yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas'uliyat bilan bajarish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo'lgan ijobiy fikrlarni yanada kengaytirish, harbiy xizmat nufuzini ko'tarish, yoshlarning jismonan

sog'lom, ma'naviy yutuq, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezu ishlariga da'vat etilgan. Bu bosqichda, zamonamiz qahramonlari haqidagi maqolalar, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish vazifalari belgilangan [2].

Dunyoda o'zining vatani bor odam baxtli hisoblanadi. Vatanidan ajralgan odam kop qiyinchiliklarga duchor bo'ladi. O'z Vatanidan ranjib ketgan odam – Vatan to'prog'iga zor bo'ladi. Shuning uchun ham ulug' Sharq allomalari Abu Nasr Farobiy, ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Ajiniyoz Qosiboy o'g'li, Berdaq G'argaboy o'g'li va boshqalar vatanga muhabbat tuyg'usi odamning qalbida tabiiy ravishda tug'ilishini, ya'ni inson o'zligini anglashi bilan, ota-bobolarining kimlar ekanligini bilgan sari yuragida vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usi ildiz otib, o'sib borishini, bu ildiz qanchalik darajada teranlasha, tug'ilib o'sgan yurtga bo'lgan muhabbat ham shuncha darajada cheksiz bo'lishini uqtirib o'tgan.

Ulug' alloma Alisher Navoiy Vatandan ayrilish inson uchun og'ir judolik ekanligini «G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish» deb boshlanuvchi she'riy asarida alohida ta'kidlab o'tadi [16:554].

Haqiqatdan ham, har kimning o'zining tug'ilgan joyi, oilasi, qishlog'i uning o'z Vatani hisoblanadi. Tug'ilib o'sgan Vatan, el-yurt, uning tinchligi haqidagi tushunchalar jamiyatning taraqqiy etishiga va ijtimoiy-tarixiy munosabatlarga bog'liq murakkablashib boradi. Jamiyatning moddiy tomondan o'zgarishiga bog'liq xalq massasining ezu-niyatlari, meros bo'lib qolgan urf-odatlar, ularning dunyoqarashlari o'zgarib turadi. Shu bois, Vatanparvarlik haqidagi tushunchalarning mazmunlari ham o'zgaradi. Vatan – el-yurt tushunchalari har bir shaxsning o'z xalqiga, ona tili va adabiyotiga, ilmu-madaniyatiga, qadimiy obidalariga, tabiati va boshqalariga bo'lgan munosabati va muhabbati, unga jon-jahli bilan berilganlikni tarbiyalaydi.

Folklor materiallari barcha turdagi san'at asarlarining boshi, yorqin yulduzi hisoblanadi. U "...xalq hayotining, xalqlar do'stligining ko'zgusi" [17:4]. Shuning uchun ham biz folklorini barcha turdagi san'at asarlari deb qabul qilib, ularni bir-birlariga o'xshamagan, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan, xalqimiz tomonidan yaratilgan, badiiy og'zaki adabiyot namunasi deb qarash joiz degan fikrdamiz.

Uzoq asrlardan saqlanib kelayotgan xalqimizning ta'lim va tarbiyaviy tajribalari, urf-odat dasturlari, tarixi bilan madaniyati qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi asosida shakllangan qoraqalpoq xalq pedagogikasida ham o'z aksini topadi. Ushbu qoraqalpoq xalq pedagogikasi asrlar davomida barpo etilib, rivojlanib, avlodlar avlodga, otadan bolaga meros bo'lib o'tib boshqa xalqlar pedagogikalari bilan o'zaro mustahkam aloqadorlikda shakllandi. Xalqimizning necha asrlar davomida yaratgan va turmush sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan, qanchadan qancha avlodlarni tarbiyalab kamolga yetkazgan, yoshlarda umuminsoniylik, Vatanparvarlik qadriyatlarini tarbiyalash tizimi yaratildi. Xalq og'zaki ijodi asosida shakllangan xalq pedagogikasi bolalarni umuminsoniylik, Vatanparvarlik qadriyatlarining me'yoriga mos tarbiyalashni maqsad qildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Vatanparvarlik – o'z elini, Vatanini jon-u dildan sevishni, o'z xalqi uchun jonini ham ayamasklikni nazarda tutadi. Bu borada qoraqalpoq xalq ijodiyoti, aniqrog'i folklor materiallarida juda ko'p ishonchli ma'lumotlar to'plangan. Qoraqalpoq folklori bolalarni kichkinaligidan boshlab aqlli, odobli, o'z elini, Vatanini chin dildan sevishga, mard, jasur, botir bo'lishga tarbiyalaydi.

Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qoraqalpoq folklori, ayniqsa uning bir janri hisoblangan bolalar folklori namunalaridan foydalanish ishlari pedagogik nuqtayi nazardan qaraganimizda ham o'zining ahamiyatliligi bilan ko'zga tashlanib turadi.

Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. 2020 йил 29 май куни Сергели туманидаги 329-умумий ўрта таълим мактабини бориб кўриш чоғида. (<https://review.uz/uz/post/shavkat-mirziyoyev>).
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ёшларни харбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепцияси» тўғрисидаги 2018 йил 23 февралдаги 140-сон қарори. <https://lex.uz/docs/3571158>.
3. Пазылов А.К., Қосназаров Қ., Сейтмуратов Қ., Курбаниязова З. Педагогика теорияси. – Т.: “Ношир”, 2018. 456-б.
4. Қосназаров Қ., Абипов Ғ., Пазылов А. Педагогика-психология терминлерини орысша-қарақалпақша қысқаша түсіндірме сөзлігі. – Нөкис: «Билим», 1994. 148-б.
5. Педагогика: энциклопедия. II-жилд / тузувчилар: жамоа. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2015. 376-б.
6. Абаев С., Якубов М.А., Алламбергенов Е.А. Кәмил инсан тәрбиясы–миллий идеяның баслы максети // Ilim hám jámiyet. – Нөкис, 2021. №1. 3-б.
7. Якупов К.А. Педагогические условия патриотического воспитания школьников в условиях современного сельского социума: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Уфа: 2009. – С.23.
8. Бахаудинов, Шамсуддин. Кәмил инсан [текст] / Шамсуддин Бахаудинов. –Т.: Ғафур Ғулам атындағы баспа-полиграфия деретиўшилиқ үйи, 2021. 272-б.
9. Жакбаров Мухаммаджон. Комил инсон ғоясининг тарихий-фалсафий негизлари. – Т.: “Tafakkur”, 2011. 256-б. 5000 экз. ISBN 978-9943-372-38-2; Б.ц.
10. Камилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. 1-китоб. – Т.: “Ёзувчи”, 1996. 272-б.
11. Нишонов С. Комил инсон тарбияси. – Т.: “Истиклол”, 2003. 318-б.
12. Тиллаева Г. Маънавийат ва комил инсон тарбияси. –Т.: “Фалсафа ва ҳуқуқ”, 2006. 149-б.
13. Умаров А.А. Ижтимоий маданий таракқиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Т.: 2005. 17-б.
14. Насафий А. Комил инсон китоби. –Т.: “Ғафур Ғулом”, 2021. 232-б.
15. Сидикметов Қ. Муқаддас динимизда ватан туйғуси. Мақола. 04.03.2017. <https://islom.uz/maqola/1586>.
16. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 3 т. – Т.: “Фан”, 1988. 575-б.
17. Айымбетов Қ. Қарақалпақ фольклори. – Нөкис: “Қарақалпақстан”, 1977. 224-б.

РЕЗЮМЕ. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishida, rivojlanishida, shakllanishida, barkamollikka erishishida xalq og'zaki adabiyotining o'rni va shu masalalarga bog'liq bo'lgan ayrim tadqiqotchilarning fikrlariga to'xtalib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье обсуждается роль народной литературы в патриотическом воспитании, развитии, становлении и совершенствовании учащихся младших классов, а также мнения некоторых исследователей по этим вопросам.

SUMMARY. In the article, the role of folk literature is discussed in the patriotic upbringing, development, formation, and perfection of elementary school students and the opinions of some researchers related to these issues.

TAYANCH MA'NAVIY KOMPETENSIYALAR VOSITASIDA 1-SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOY KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH USULLARI (“Yangi avlod” darsliklari misolida)

M.A.Raximova – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Namangan davlat universiteti

Tayanch so'zlar: tarbiya fani, “Yangi avlod” darsliklari, ijtimoiy ko'nikmalar, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini tahlil qilish.

Ключевые слова: предмет Воспитания, учебники “Янги авлод”, социальные навыки, социально-эмоциональные навыки, самооценка, самоанализ.

Key words: subject of Education, textbooks “Yangi avlod”, social skills, socio-emotional skills, self-esteem, self-analysis.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi [1] qarori qabul qilindi. Qaror asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun “Tarbiya” fani Konsepsiyasi qabul qilindi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda yoshlar bilan ishlashning yangicha modellarini yaratishda innovatsion mexanizm va texnologiyalarni qo'llashga doir ko'plab amaliy ishlar qilinmoqda. Shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda o'quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatlilik, diniy va milliy bag'rikenglik, ma'naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy kabi fazilatlarini shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda.

Shu bois yoshlar tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan «Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitish ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Jumladan, yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to'g'ri baho bera olish, ijtimoiy muammolarni hal etishda to'g'ri qaror qabul qilish, hayotda o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga o'rgatish, buning natijasi o'laroq, oila-jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning uzilib qolishining oldini olish, loqaydlik, huquqbuzarlik, «ommaviy madaniyat»ning turli ko'rinishlaridan saqlash imkonini yaratiladi.

Bu, o'z o'rnida, O'zbekiston Respublikasini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy rivojlantirishning muhim omili bo'lgan yoshlar tarbiyasi shaxsan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuskorligida davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini inobatga olib, ushbu yo'nalishdagi printsiplial yondashuvlarni takomillashtirish, strategik maqsad va vazifalarning konseptual asoslarini ishlab chiqish zaruratini talab qildi.

“Tarbiya” fanining maqsadi – o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar, milliy, umummadaniy va faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish. [3] “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi” da tarbiya nuqtayi nazaridan kompetensiyalarni “fazilatlar” sifatida talqin qilinganiga guvoh bo'lish mumkin. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, qachonki fazilatlar qadriyatlar interiorizatsiyasi (ichki anglanganlik) darajasida namoyon bo'lsa, u holda mazkur jarayonga nisbatan “kompetensiya” tushunchasini qo'llash mumkin. Aniqrog'i, fazilatlarining motivatsion va kognitiv darajada namoyon bo'lishini kompetensiyaning shakllanganligi sifatida e'tirof etish mushkul. Kundalik faoliyat va kasbiy ahamiyatga ega ko'nikmalar – hayot sohibi bo'lmish inson – mamlakat fuqarosini tarbiyalashga umumdavlat-ijtimoiy buyurtmasi bilan; davlat va jamiyatdagi iqtisodiy, ilmiy, ijtimoiy, ma'naviy o'zgarishlar dinamikasi, inson potentsiali (intellektual, jismoniy, ma'naviy) bilan belgilanadi va kompetensiyalar ana shu qarashlar doirasida shakllanadi.

Boshlang'ich sinflarda “Tarbiya” fanining vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilab olindi: